



**O'zbekistonda soliq tushumlarini prognozlashtirish ishlarini samarali
tashkil etish mexanizmini takomillashtirishning ahamiyati**

Qurbanboyeva Odina Sayfiddin qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Тел: 90 400-18-08

E-mail: qurbanboyevao@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat budjetini shakllantirishda soliq tushumlarini prognozlashtirishni samarali tashkil etilishi, buning natijasida davlatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari, budjet daromadlarini samarali tashkil etish yo'llari o'rganilgan. Davlat funksiyalarini bajarishi uchun budjet daromadlarini zarur darajada shakllantirish va barqarorlashtirish mexanizmini tubdan takomillashtirish imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Tayanch so'z va iboralar: Davlat budjeti, soliq, budjet siyosati, soliq to'lovchilar, soliq ma'murchiligi, mahalliy budjet tizimi, soliq yuki, soliq stavkasi, tahlil va prognozlashtirish, budjet defitsiti, soliq obekti.

Аннотация: В данной статье исследуются эффективная организация прогнозирования налоговых доходов при формировании государственного бюджета, в результате этого изучаются перспективы социально-экономического развития государства, пути эффективной организации доходов бюджета. Изучены возможности кардинального совершенствования механизма формирования и



стабилизации доходов бюджета до необходимого уровня для выполнения государственных функций.

Ключевые слова: Государственный бюджет, налог, бюджетная политика, налогоплательщики, налоговое администрирование, местная бюджетная система, налоговая нагрузка, ставка налога, анализ и прогнозирование, дефицит бюджета, объект.

Abstract: In this article, the effective organization of tax revenue forecasting in the formation of the state budget, as a result of this, the prospects of socio-economic development of the state, the ways of effective organization of budget revenues are studied. Possibilities of fundamental improvement of the mechanism of formation and stabilization of budget revenues to the necessary level for the performance of state functions have been studied.

Key words: State budget, tax, budget policy, taxpayers, tax administration, local budget system, tax burden, tax rate, analysis and forecasting, budget deficit, tax object.

Kirish.

Hozirgi kunda mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda va aholining turmush darajasini o'sishi hamda rivojlanishida davlat budjeti muhim omil hisoblanadi. Davlat budjetining asosiy manbasi soliqlar hisoblanadi hamda budjet soliqlar vositasida shakllanadi.

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning paydo bo'lishi va uning faoliyatining davomiyligi bilan bevosita bog'liqdir. Soliq kategoriyasi davlatning iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqelik sifatida yuzaga chiqqan. Soliq tushunchasi tor ma'noda



davlat ixtiyoriga soliq to'lovchilardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi.

Soliqlar-iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'rinni egallaydi. Uning xarakterli tomoni shundaki, u tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan ularga mulkchilik, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruv huquqida tegishli bo'lgan pul mablag'larini davlat va munitsipal tuzilmalarni moliyaviy ta'minlash maqsadida begonalashtirish shaklida undiriladigan majburiy, yakka tartibdagi qaytarib berilmaydigan to'lovlarni aks ettiradi, ya'ni soliq-davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi subektlar va fuqarolardan majburiy qonuniy tartibda belgilangan stavkalar bo'yicha, soliq to'lovchining bundan biron bir muayyan manfaat ko'rishi bilan bevosita bog'lanmagan tarzda undiriladigan pul yig'imi hisoblanadi.

Har bir shaxs ushbu Kodeksda belgilangan soliqlar va unda nazarda tutilgan yig'implarni to'lashi shart. Hech kimga soliqlar va yig'implarning barcha alomatlariga ega bo'lgan, biroq ushbu Kodeksda nazarda tutilmagan yoxud uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas [1].

Bundan tashqari, Soliq to'lash xo'jalik yurituvchi subektlar va fuqarolar bilan davlat o'rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biror bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki soliqlar budjet daromadlarini tashkil etishning asosiy vositasi bo'libgina qolmay:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga;
- ishlab chiqarishni rag'batlantirishda investitsiyalarni ko'paytirishga;
- raqobatbardosh mahsulot hissasini ko'paytirishga;
- kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga;
- xususiy korxonalar ochish bilan bog'liq bo'lgan bozor infratuzilmasini barpo qilishga;



- umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga va boshqalarga xizmat qiladi.

Soliq tizimi bu o‘zaro bog‘liq mohiyati jihatidan bir xil bo‘lgan soliqlar va soliqsiz to‘lovlar, soliq siyosati va soliq mexanizmlarining o‘zaro majmui bo‘lib, respublika budjet tizimi, ya‘ni davlat budjeti va mahalliy budjetlar uchun muhim moliyaviy resurs hisoblanadi. Soliq tushumlari hisobi va prognozining zarurligi soliqlar tomonidan bajariladigan fiskal (xazina), nazorat funksiyalari bilan bevosita bog‘liq.

Har bir davlat uchun samarali soliq tizimini shakllantirish milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirishning asosidir, soliqlar byudjet daromadining asosiy qismini tashkil etganligi sababli asosiy iqtisodiy mexanizm sifatida ta‘riflanadi. Bugungi kunda soliq tizimi yangi voqelik va imkoniyatlarni hisobga olgan holda o‘zgartirilmoqda, bu esa soliq ma‘muriyatchiligi tizimini optimallashtirish, yanada samarali nazorat va baholash siyosatini amalga oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Soliq tizimida budjet daromadlarini prognozlashtirishning samarali yo‘llari iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi. Budjet daromadlari bevosita ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta‘sir etib, mamlakat istiqbolidagi taraqqiyotning darajasini belgilaydi. Bu xususida olimlarning ilmiy izlanishlari natijasida yuzaga kelgan ko‘plab fikrlar mavjud.

Bogatirevaning (2014) fikricha, “soliqqa tortish islohoti bu davlat soliq tizimidagi qonuniy ravishda belgilangan o‘zgarish, bu davlat soliq siyosati strategiyasini o‘zgartirishga asoslanadi. Shunday qilib, soliq siyosati taktikasining o‘zgarishi soliqqa tortish islohotiga olib kelmaydi. Faqat soliq tizimiga tegishli amaldagi qonunchilikdagi o‘zgartish va qo‘shimchalar sifatida ko‘rib chiqiladi. Soliq siyosati strategiyasidagi o‘zgarishlar mamlakatda soliqqa tortish islohotlarini amalga oshirish uchun asosdir [2].



Erizal (2022) va boshqalar davlat soliq to'lovchilarga o'z soliq majburiyatlarini davlat bilan hal qilish imkoniyatini yaratib berishi uchun yetarlicha imkoniyatlar berishi kerak. Shu bilan davlat soliq to'lovchilarga ko'proq daromad olish va daromadini soliqlardan yashirmaslikka undashi mumkin deb keltiradi [3].

Etakchi xorijiy mutaxassislardan A.V.Brizgalinning o'z ilmiy tadqiqotlaridagi qarashlarida soliq tushumlari bilan soliq yuki o'rtasidagi bog'liqliklarni tadqiq qilib, uning soliq tushumlari prognoziga ta'sirini baholagan[4].

V.G.Panskov va V.Knyazevlar esa, budjetni prognoz qilishda soliq tushumlarini prognozlashtirishning ahamiyatini ko'rsatib bergan [5].

Hebousning (2023) keltirib o'tishicha kam soliqqa tortiladigan mamlakat uchun majburiy minimal samarali stavkani ishlab chiqish farovonlikka olib keladi va mamlakatga kelib tushadigan tushumlarni statistik baholashga imkon beradi. Soliq to'lovchilar ham minimal stavkada soliqlardan qochmaydilar [6].

Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish bo'yicha nazariy va amaliy jihatlari A.Laffer, G.Miles, Ye.Bekker, Ye.Malish, L.Kaplov, N.Ivanova, O.Lazurina, R.Roze, S.Kadomseva, S.Miller, S.Porsa, T.Gayer, U.Lott, X.Rozen va boshqalar kabi xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiqot ishlarini olib borganliklari haqida tahliliy izlanishlar qilingan.

Bundan tashqari, davlat budjeti daromadlarining tarkibi, ularni boshqarish, soliq islohotlarining alohida nazariy, amaliy va metodologik jihatlari xususida O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.Vahobov, A.Jo'raev, A.Mamanazarov, B.Toshmurodova, Z.Srojidinnova, N.Qo'zieva, N.Haydarov, O.Iminov, T.Malikov, X.Kobulov, Sh.To'rayev, Q.Yahyoyev va boshqalarning tadqiqotlarida tadqiq qilinganliklari haqida tanishib chiqildi va o'rganildi.



Tuychiyev (2023) soliqqa tortish stavkasining yuqoriligi juda ahamiyatliligini keltirib o'tadi va iqtisodiyotda biznesni boshlash va yopish moyilligiga ta'sir qiladi, tadbirkorlik subyektlarining tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlarini to'liq yoki qisman yashirishga harakat qilishadi, tadbirkorlik va biznes investitsiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi deb keltiradi, ya'ni past soliq stavkasini taklif qiladi. Bu o'z navbatida, davlat budjeti daromadlariga ta'sir o'tkazadi [7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy tadqiqotning maqsadi va budget daromadlarini prognoz qilish mexanizmini takomillashtirish masalalarini yoritishda qiyosiy, tarkibiy, analitik va statistik ma'lumotlar tahlili, induksiya, deduksiya, tizimli va kompleksli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Prognozashtirish (grekcha, prognoses-oldindan ko'rish) moliyaviy menedjmentda uzoq istiqbolga moliyaviy holatni bir butun xolda va turli qismlarini o'zgartirishni ishlab chiqish tushuniladi. Prognozlash-bu ob'ektni yoki hodisani kelajakdagi me'yoriy yoki maqbul holatlari, ularga erishish va ularni ro'yobga chiqarishning alternativ yo'llari to'g'risidagi ehtimolga yaqin tasavvurni ishlab chiqish. Prognozlash oldindan ko'rish formasi bo'lib, ijtimoiy iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va rejalarni ishlab chiqishdan oldin amalga oshiriladi. Rejalashtirish prognozashtirishdan farqli ravishda ishlab chiqilgan prognozni bevosita amaliyotga tadbiiq etish vazifasini oldiga qoymaydi. Prognozlar tegishli o'zgarishlarni oldindan ko'rishni o'zida aks ettiradi. Prognozashtirishning o'ziga xos tomonlaridan yana biri, moliyaviy ko'rsatkich va mezonlarni tashkil etishdagi muqobillikdir. Yuqoridagi mezon va ko'rsatkichlar moliyaviy holat rivojlanishini variantlilikini aniqlaydi. Ushbu variantlar ob'ektidagi jarayonlardagi xodisalarning variantlilikini namoyon bo'layotgan tendentsiyalar asosida ishlab chiqiladi.



Soliq tushumlarini prognoz qilishning bir qancha umumiy qoidalari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

- umumiy va hududlar bo'yicha asosiy daromad turlariga doir yillik tushumlarning prognozi;
- asosiy daromad turlari oylarga bo'lingan holda choraklik tushumlar prognozi;
- prognoz hisob-kitoblari bilan belgilangan daromadlarni jalb etish bo'yicha choralarni amalga oshirish.

Soliq prognozining asosiy vazifalari: Soliq tushumlarining kelajakdagi ilmiy asoslangan, obektiv holatini ishlab chiqish (bugungi kundagi jarayonlarga tayangan holda), prognoz hisob-kitobi asosida faoliyat asosiy yo'nalishlarini hamda soliq siyosatini tanlash, kelajakda soliq tushumlariga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashdan iborat.

Soliq organlarida Davlat budjetini shakllantirishga soliq tushumlarini prognozlashtirish metodikasi sifatida soliq organlari tomonidan maqsadli jamg'armalariga soliq va yig'imlar tushumlarining prognozini tayyorlash maqsadida ishlab chiqilgan, shuningdek davlat miqiyosida soliq siyosatini tizimli amalga oshirishda soliq tushumlarining prognoz ko'rsatkichlariga erishilishini so'zsiz ta'minlashga hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga va boshqa normativ-huquqiy qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliq yig'imlarning to'g'ri hisob kitob qilinishi hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratlarini yuritishga qaratilgan.

Soliqlarni prognoz qilishda jami xujalik yurutuvchi subyektlarning (yuridik va jismoniy shaxslar) moliyaviy va xo'jalik hisobotlarni ko'rsatkichlarni tahlili qilish va ulardan ma'lum xulosalar chiqarish, prognoz hisobotlariga ta'sir etuvchi iqtisodiy moliyaviy va ijtimoiy omillarni aniqlashdan boshlanadi.

Davlat budjetini prognoz qilishda: soliq turlari, soliq to'lovchilar soni, soliq solish obyekti, soliq stavkalari, soliq imtiyozlar, jami daromad tarkibi, yillik tovar aylanmasi, jami daromaddan chegirmalar, umidsiz qarzlarni, moliyaviy jarima va penya summalarini, asosiy



vositalar, qimmatli qog'ozlar va boshqa aktivlarni sotishdan qilingan foyda va zararlarni, amortizatsiya bo'yicha chegirmalar va tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar, shuningdek hududlarning iqtisodiy salohiyatini o'rganish lozim bo'ladi.

Budjet daromadlarini prognozlashtirishda, davlat soliq xizmati organlari xodimlari qonun va meyoriy hujjatlar, yo'riqnomalar, hukumatning qaror va buyruqlari, soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar to'g'risida inventarizatsiya ma'lumotlari, Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan daromadlar klassifikatsiyasi, hokimiyat buyruqlari, bank muassasalaridan olingan ish haqi to'g'risidagi inventarizatsiya ma'lumotlari, korxonalarning debitor va kreditor qarzlari to'g'risidagi ma'lumotlar, korxonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati haqida statistik ko'rsatkichlar va boshqa ma'lumotlardan foydalanadilar.

Tahlil va prognozlashtirish davlat soliq xizmati organlari: hududiy tuman (shahar) soliq inspeksiyalari, viloyat soliq boshqarmalari va Soliq qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlari hududlar bo'yicha moliyaviy va xo'jalik hisobot ko'rsatkichlarini tahlil qilib va xulosalar chiqarib, prognoz hisobotlariga ta'sir etuvchi hamma iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy omillar bo'yicha soliqlar tushumini prognozlaydi.

Davlat soliq xizmati organlarida budjetga soliq va boshqa majburiy to'lovlar tushumi jami tushum, hududlar kesimida, soliq turlari va manbalar bo'yicha prognozlashtiriladi. Prognozlar yillik va yillik prognozlar asosida choraklik prognozlar tuziladi. Soliq va to'lovlarni operativ nazorat qilib borish uchun choralik prognozlar asosida oylik va bir kunlik prognozlar tuzib chiqiladi.


Kelgusi yil uchun davlat budjetiga soliq tushumlarini prognoz qilishda bevositda o'tgan davrda ijrosi ta'minlangan tushumlar miqdori tahlil qilinib, yillar davomidagi o'sish sur'ati hisobga olinadi va bu ko'rsatkichlar muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



2023-yilda Davlat budjetiga jami soliq tushumlari 165,9 trln so'mni tashkil etgan. Bu belgilangan yillik prognozga (163,8 trln so'm) nisbatan 101,3 foizga (2,1 trln so'm) hamda 2022-yilning mos davriga nisbatan 17,4 trln so'mga bajarilgan.


2024-yilda soliq organlari tomonidan respublika bo'yicha budjetda 199,6 trln so'm tushumlari ta'minlanib, 2023-yilga nisbatan 20% o'sishga erishilgan.

2025-yilda iqtisodiy faollikning oshishi hisobiga Davlat budjeti daromadlarining o'sishi prognoz qilinmoqda. 2025-yil uchun Davlat budjeti daromadlari 308,5 trln so'm yoki yalpi ichki mahsulotning 19,0 foizi miqdorida prognoz qilingan (2024-yilda 271,1 trln so'm yoki YaIM ning 19,2 foizi).



1-rasm. Davlat budjeti daromadlari dinamikasi (BMTTD,2024).

2025-yilda bevosita soliq tushumlari 100,3 trln so'm (davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 32,5 foiz), jumladan foyda solig'i-54,8 trln so'm (17,7 foiz), aylanmadan olinadigan soliq-3,5 trln so'm (1,1 foiz), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i-4,2 trln so'm (13,6 foiz). Bevosita soliq tushumlarini prognoz qilishda iqtisodiy o'sish sur'atlari, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining joriy etilishi va ish haqining o'sishi hisobga olindi. Foyda solig'i bo'yicha tushumlar 54,8 trln so'm yoki 2024-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 5,9 trln so'mga (12,0 foiz) ko'p bo'lishi prognoz qilinmoqda. Oltin qazib chiqaruvchi korxonalardan tashqari to'lovchilar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari 25,1 mlrd so'm (o'sish sur'ati 17,8 %) hisob-kitob qilingan [8].



2-rasm. Yirik soliq to'lovchilarning O'zbekiston Respublikasi davlat tushumlaridagi ulushi, 2025-yil prognozi, % da (BMTTD,2024).

Shuningdek, teng raqobat sharoitini yaratish, xarajatlar tarkibini asossiz oshirishning oldini olish hamda to'lov intizomini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar natijasida davlat ulushi bo'yicha budjetga prognozga nisbatan qo'shimcha soliq summalari undiriladi.

Xulosa va takliflar.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi davlat budjetini tashkil qilish, belgilangan prognoz reja ko'rsatkichlarini to'laonli bajarilishini ta'minlash soliq xizmati organlarining eng ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalangan holda, zamonaviy talablarga javob beradigan, soddalashtirilgan tizimni joriy etish orqali mablag'larning shakllantirilishi hamda to'g'ri maqsadli, samarali yo'naltirilishi ko'zda tutiladi. O'z navbatida, soliq tizimida soliq tushumlarining to'g'ri prognoz qilinishi sohasida ishlarni samarali tashkil qilish bo'yicha ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Bunga qo'shimcha ravishda quyidagilar:



1. Soliq organlari tomonidan Davlat budjeti daromadlariga soliq tushumlarini prognozlashtirish faoliyatidagi mavjud zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini shaffofligini, soliq solish masalalariga aloqador vazirlik va idoralar bilan hamkorlik, mavjud huquqiy-me'yoriy hujjatlarga amal qilinishini ta'minlash hamda o'rnatilgan nazorat tadbirlarining samaradorligini oshirish;

2. Hududiy soliq xizmati organlari tomonidan soliq tushumlarini prognoz qilish mexanizmlarining mukammal tashkil etilishini ta'minlash maqsadida, norasmiy iqtisodiyotni sezilarli darajada qisqartirish borasida, barcha tegishli tuzilmalar bilan soliq organlarining hamkorligini oshirish;

3. Soliq solish obektlari va soliq solinadigan bazaning o'z vaqtida hisobga olinishini, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish obektlarini to'liq qamrab olishni ta'minlash va soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni tashkil qilishda, barcha vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog'liq bo'lgan axborotlarini o'z muddatida hamda ishonchli manbalar bilan taqdim etilishi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirish taklif etiladi.

Shu orqali, daromadlar prognozini sifatli shakllantirish va bajarish, soliq solinadigan bazani kengaytirish, davlat budjetiga soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish hamda taraqqiyotni istiqbolli rejalashtirishga erishiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi (2019).
2. Богатырева Е.Н. (2014) Теоретические детерминанты налоговых реформ. ИСЧН 2221-7347 Экономика и право.
3. Erizal J. et al. (2022) Improving the Indonesian Taxation System using Tax Amnesty's Policy //WSEAS Transactions on Business and Economics. – T. 19. – C. 876-884.
4. Xudoyqulov S.K. Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DcS) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. 2019 yil. 14-16, 20- 21, 28-29-b.
5. Agzamov A.T. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2019 yil. 17- 22-b.
6. Hebous S., Keen M. (2023) Pareto-improving minimum corporate taxation //Journal of Public Economics. – T. 225. – C. 104952.
7. Tuychiyev Sh. (2023) O'zbekistonda kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortish tizimini isloh qilish yo'nalishlari //Iqtisodiyot va ta'lim. – T. 24. – №. 1. – S. 427-433.
8. "Fuqarolar uchun byudjet: 2025 loyiha" axborot nashri (2024).
9. Vahobov A.V, Jo'rayev A.S Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T: "Sharq", 2009. - 188 b.
10. Malikov T.S., Jalilov P.T. Budjet-soliq siyosati. O'quv qo'llanma. – T.: "Akademnashr", 2011. - 472 b.